

2019-yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 6 038 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 857 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5 321 ta (28,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 24 293 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-dekabr holatiga 24 293 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,0 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,5 % savdo, 15,3 % sanoat, 10,6 % qurilish, 9,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,7 % tashish va saqlash, 1,0 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 22,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | Umumiy soni, ming birlik | | 01.12.2019 yil | |
|----------------------------------------------------|--------------------------|----------------|-----------------------------------------|--------------------|
| | 01.12.2018 yil | 01.12.2019 yil | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % | Jamiga nisbatan, % |
| Jami | 18 972 | 24 293 | 128,0 | 100 |
| <i>shundan:</i> | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 2 000 | 2 372 | 118,6 | 9,8 |
| Sanoat | 2 726 | 3 729 | 136,8 | 15,3 |
| Qurilish | 1 994 | 2 579 | 129,3 | 10,6 |
| Savdo | 4 067 | 5 940 | 146,0 | 24,5 |
| Tashish va saqlash | 1 206 | 1 390 | 115,3 | 5,7 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 251 | 1 913 | 152,9 | 7,9 |
| Axborot va aloqa | 222 | 250 | 112,6 | 1,0 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 501 | 574 | 114,6 | 2,4 |
| Boshqa turlari | 5 005 | 5 546 | 110,8 | 22,8 |

Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (7 751 ta), G'ijduvon (2 636 ta), Romitan (1 943 ta) va Buxoro (1 824 ta) tumanri hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (473 ta), Olot (750 ta) tumanlari, hamda Kogon shahri (947 ta) da korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 23 192 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5 218 ta (29,0 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,3 % savdo, 15,3 % sanoat, 10,6 % qurilish, 9,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,8 % tashish va saqlash, 1,0 % axborot va aloqa, 2,5 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 23,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (7 481 ta), G'ijduvon (2 391 ta), Romitan (1 896 ta), Buxoro (1 702 ta) va Jondor (1 534 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (464 ta), Olot (668 ta) tumanlari hamda Kogon shahri (927 ta) da korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 6 038 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2 857 taga ko'pdir.


Yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Buxoro shahri (1 815 ta), G'ijduvon (679 ta), Romitan (584 ta) va Buxoro (420 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (131 ta), Olot (199 ta), Vobkent (254 ta) da, hamda Kogon (269 ta) tumanlariga korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (2 075 ta), sanoat (1 194 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (664 ta) va qurilish (589 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (52 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (79 ta), hamda tashish va saqlash (258 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga 19 862 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3 496 ta, oilaviy korxonalar – 1 784 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 14 232 ta va boshqalar 350 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1- dekabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 273 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 130 taga yoki 191,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1- dekabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 273 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo'lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Buxoro shahri (148 ta), Kogon tumani (20 ta), Peshku tumani (16 ta) Kogon sh. (14 ta) va Buxoro tumani (11 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Olot (5 ta), Qorako'l (7 ta) hamda Shofirkon (7 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 155 tasi qo'shma korxonalar, 118 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Tumandlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

| | Korxonalar soni | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|------------------|------------------------|----------------------------------|
| Buxoro viloyati | 273 | 100,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Olot | 5 | 1,8 |
| Buxoro | 11 | 4,0 |
| Vobkent | 7 | 2,6 |
| G'ijduvon | 9 | 3,3 |
| Kogon | 20 | 7,3 |
| Qorako'l | 7 | 2,6 |
| Qorovulbozor | 9 | 3,3 |
| Peshku | 16 | 5,9 |
| Romitan | 9 | 3,3 |
| Jondor | 11 | 4,0 |
| Shofirkon | 7 | 2,6 |
| Buxoro sh. | 148 | 54,2 |
| Kogon sh. | 14 | 5,1 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 114 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61 taga ko'paygan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Buxoro shahar (63 ta yoki jami ulushi 55,3%), Kogon tumani (8 ta yoki 7,0 %) va Kogon shahri (8 ta yoki 7,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Vobkent tumani (1 tadan yoki 0,9 %), Jondor va G'ijduvon tumanlari (3 tadan yoki 2,6 %), Peshku tumani (4 tadan yoki 1,5%), Olot va Qorako'l tumanlari (2 tadan yoki 1,7%) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Turkmaniston Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 32 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 19 ta, Turkiya Respublikasi - 13 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 12 ta, Koreya Respublikasi - 6 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (37 ta), sanoat (34 ta), qurilish (18 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (11 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (2 ta), hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (6 ta).

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 19 726 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-dekabr holatiga qaraganda 34,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 6 571 tasi (33,3 %) Buxoro shahri, 2 050 tasi (10,4 %) G'ijduvon, 1 657 tasi (8,4 %) Romitan, hamda 1 476 tasi (7,5 %) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19 726 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5 605 tasi (28,4 %) - savdo, 3 522 tasi (17,9 %) - sanoat, 2 431 tasi (12,3 %) - qurilish, 2 166 tasi (11,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 805 tasi (9,1 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1 324 tasi (6,7%) - tashish va saqlash bo'yicha xizmatlar sohasi, 225 tasi (1,1%) - axborot va aloqa sohasi, 487 tasi (2,5 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 2161 tasi (11,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-noyabr oylarida 5836 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,0 marta ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Buxoro shahri (1 739 ta), G'ijduvon tumani (666 ta), Romitan tumani (568 ta) va Jondor tumani (406 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorovulbozor tumani (128 ta), Olot tumani (195 ta), Kogon tumani (259 ta), Kogon shahar (290ta) tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2 075 ta), sanoatda (1 191 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (663 ta) va qurilishda (589 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (52 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (75 ta), hamda tashish va saqlashda (258 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 1 774 tani tashkil etib, ulardan 1 682 tasi yoki 94,8 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 87,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,5% yoki 491 tasi sanoat, 31,3 % yoki 558 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,0 % yoki 375 tasi savdo, 8,6 % yoki 154 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,9 % yoki 17 tasi tashish va saqlash, 1,9 % yoki 34 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 16 tasi qurilish, 0,7 % yoki 12 tasi axborot va aloqa hamda 7,1 % yoki 127 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

| | Korxonalar soni | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|------------------------|------------------------|----------------------------------|
| Buxoro viloyati | 908 | 100 |
| Olot | 38 | 4,2 |
| Buxoro t. | 50 | 5,5 |
| Vobkent | 68 | 7,5 |
| G'ijduvon | 152 | 16,7 |
| Kogon t. | 44 | 4,8 |
| Qorako'l | 65 | 7,2 |
| Qorovulbozor | 10 | 1,1 |
| Peshku | 59 | 6,5 |
| Romitan | 49 | 5,4 |
| Jondor | 46 | 5,1 |
| Shofirkon | 79 | 8,7 |
| Buxoro sh. | 172 | 18,9 |
| Kogon sh. | 76 | 8,4 |

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 908 taga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,8 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Buxoro sh.(172 ta),G'ijduvon(152 ta),Shofirkon(79 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorovulbozor (10 ta), Olot (38 ta), Kogon (44 ta) hamda Peshku (59 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,9 % yoki 253 tasi sanoat, 26,9 % yoki 253 tasi savdo, 30,1 % yoki 245 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 5,1 % yoki 47 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,4 % yoki 4 tasi qurilish, 1,2 % yoki 11 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 6 tasi axborot va aloqa hamda 6,6 % yoki 60 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Buxoro viloyati
Statistik registrlarni yuritish
Tel.:71-230-83-20 (21)